


## XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2023- yilning yanvar-iyun oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 767,4 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 122,7 % ga oshdi.

O‘rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 2 181 ta korxonalar va tashkilotlarda tashkil qildi.



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati, foizda

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming so'm  
(2023- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)


SANOAT SOHASIDA




QURILISH SOHASIDA



SAVDO SOHASIDA



TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



7 159,3  
ming so'm *April*

*May* 8 607,2  
ming so'm

7 846,5  
ming so'm *Iyun*

*Yanvar-iyun*

7 128,9  
ming so'm

## BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA



12 273,8  
ming so'm *April*

*May* 11 023,7  
ming so'm

13 555,8  
ming so'm *Iyun*

*Yanvar-iyun*

11 134,9  
ming so'm

## TA'LIM SOHASIDA



2 843,4  
ming so'm *April*

*May* 3 084,5  
ming so'm

3 295,4  
ming so'm *Iyun*

*Yanvar-iyun*

2 967,1  
ming so'm

## SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA



2 988,1  
ming so'm *April*

*May* 3 119,0  
ming so'm

3 233,8  
ming so'm *Iyun*

*Yanvar-Iyun*

2 971,5  
ming so'm

**2023- yilning yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlili:**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**Sanoat** sohasidagi 62 ta korxonada va tashkilotlarda 45,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,5 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 1 423,4 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 28,9 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 5 271,6 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 126,2 % ga o'sdi.

**Qurilish** faoliyat turidagi 8 ta korxonada 0,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,2 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 7,1 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 816,2 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 131,9 % ga o'sdi.



**Savdo** faoliyat turidagi 16 ta korxonada 1,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 30,9 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 532,0 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 142,5 % ga o'sdi.

**Tashish va saqlash** faoliyat turidagi 13 ta korxonada 0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 18,3 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 475,5 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 166,6 % ga o'sdi.



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** sohasidagi 4 ta korxonada 0,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,01 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 1,3 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,01 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 303,3 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 238,4 % ga o'sdi.



**Axborot va aloqa** sohasidagi 8 ta korxonada 0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 40,7 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 7 128,9 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 207,7 % ga o'sdi.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik** iqtisodiy faoliyat turidagi 24 ta korxonada 3,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 275,8 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 11 134,9 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 124,3 % ga o'sdi.



**Ta'lim sohasi** iqtisodiy faoliyat turidagi 1 513 ta korxonada 95,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 43,6 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 1 701,5 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 34,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 967,1 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 117,3 % ga o'sdi.



**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi** dagi 77 ta korxonada 44,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,1 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 800,2 mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 16,3 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 2 971,5 ming soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 118,5 % ga oʻsdi.




**Sanʼat, koʻngil ochish va dam olish sohasidagi** 68 ta korxonada 2,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar 34,6 mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 2 679,7 ming soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 125,8 % ga oʻsdi.

**Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi** 388 ta korxonada 24,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,3 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar 586,7 mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 11,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 3 915,6 ming soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 126,4 % ga oʻsdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng yuqori oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 11 134,9 ming soʻmni tashkil etdi. Shuningdek yuqori koʻrsatkichlar sanoat faoliyat turida (5 271,6ming soʻm) hamda axborot va aloqa faoliyat turida (7 128,9 ming soʻm) kuzatildi. Eng past koʻrsatkich esa qurilish faoliyat turida kuzatildi va 2 816,2 ming soʻmni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2023- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (5 677,7 ming so‘m), Andijon shahrida (4 815,8 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Ulug‘nor tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati**  
(2023- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2023- yil yanvar-iyun oylarida; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'mda)

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 071,3</b>	<b>3 767,4</b>	<b>122,7</b>
<i>shaharlar</i>			
Andijon sh.	3 915,2	4 815,8	123,0
Xonobod sh.	3 275,2	3 695,3	112,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	2 191,9	3 051,2	139,2
Andijon	2 415,4	2 773,7	114,8
Baliqchi	1 939,3	2 523,7	130,1
Bo'ston	2 048,9	2 402,6	117,3
Buloqboshi	2 054,3	2 512,2	122,3
Jalaquduq	2 171,7	2 749,7	126,6
Izboskan	2 459,8	3 294,8	133,9
Ulug'nor	2 163,5	2 420,8	111,9
Qo'rg'ontepa	2 439,5	2 907,8	119,2
Asaka	4 813,2	5 677,7	118,0
Marhamat	2 348,1	2 788,2	118,7
Shahrixon	2 490,5	2 650,8	106,4
Paxtaobod	2 691,1	3 089,7	114,8
Xo'jaobod	2 268,1	2 539,2	112,0



## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbati foizda


(2023- yil yanvar-iyun oylarida, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (5 677,7 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 150,7 % ga yuqori), Andijon shahri (3 695,3 ming so'm 127,8 % ga yuqori) da kuzatilgan bo'lsa, Bo'ston tumani (2 402,6 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 63,8 % ga past) va Ulug'nor tumani (2 420,8 ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan 64,3 % ga past)da kuzatildi.

### Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2023 yil may oyidan **980 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023- yil 28- martdagi PF 45-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni** – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

**Ish vaqti**- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

**Ish haqi**- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

**Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.